

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС

ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ

“ХАЛҚАРО ТУРИЗМ” факультети

“Сервис” кафедраси

КУРС ИШИ

МАВЗУ ТУРИЗМ ХИЗМАТЛАРИ ВА МАҲСУЛОТЛАРИ

Бажарди С.С. Сайфуллаев ТМ 91

Текширди кат.ўқт. Ш.С. Сайфутдинов

ТОШКЕНТ 2013

МУНДАРИЖА

Кириш

РЕЖА

I-БОБ Туризм саноатида туристик хизматлар тушунчаси

1.1. Туризм индустриясида turistik xizmatlar haqida tushuncha.

1.2. Туризм бозорида turistik xizmatlar tarkibi

II-БОБ Туризм индустриясида туристик хизматлар ва маҳсулотларнинг аҳамияти ва ривожлантириш йўллари

2.1. Turistik mahsulotlar haqida tushuncha

2.2. Туристтик хизматларни standartlashtirish va sertifikatlashtirish йўллари.

2.3. Туризмни ривожлантиришда туристик хизматлар ва маҳсулотларни такомиллаштириш йўллари

ХУЛОСА

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

ИЛОВА

КИРИШ

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда туризм индустриясини ривожлантириш учун янги йилларни интенсив равишда тўплаш ва ўзлаштириш ҳамда шу асосда бутун ҳўжалик механизмини ўзгартиришнинг истиқболли дастурини шакллантириш зарур. Бу жараён кўпроқ даражада мақсадга йўналтирилган ҳолда бориши учун турли-туман усуллар, иш юритиш шакллари таҳлил қилиб чиқилди, чет эл тажрибасидан фойдаланилади.

Кўплаб таркибий қисмларидан ташкил топган туризм соҳасининг иши унинг беистисно барча йўналишларига эътибор қаратишни талаб қилади. Аммо, бу фаолиятда "Буюк Ипак Йўли" туризм маршрутини кўришга имтиёз берган ҳолда моддий-техник базасини мустаҳкамлашнинг роли алоҳида аҳамиятга эгадир, бу маршрутнинг амалга оширилишига кўплаб халқаро ташкилотлар, шу жумладан ЮНЕСКО ҳам қизиқиш билан қарамоқда. Бироқ, ҳар қандай шароитда ҳам давлат оптимал иқтисодий ва ҳуқуқий заминни яратган тақдирдагина туризм ривожланиши мумкин. Агарда давлат касбий тайёгарлик масалалари, табиий ва маданий муҳитни муҳофаза этиш, ахборот-реклама ишлари ва расмийлаштириш соддалаштириш кабилар билан шуғулланмаса, у ҳолда туризм кутилганидек ривожланиш даражасига эриша олмайди. Бунда давлат томонидан туризмни ривожлантириш, туристик хизматлар бозорини шакллантириш, иқтисодий тартибга солиш усуллари ва ричаглари қайта ислоҳ этиш, туризмни ташкилий бошқарув структураларини такомиллаштириш, унинг экспорт салоҳиятини ошириш ва энг асосийси, хорижий инвестицияларни жалб қилиш кабиларга тегишли услубий ва амалий ёндашувларни ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг 2012-йилнинг асосий яқунлари ва 2013-йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаларида мамлакатимизда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаси 2012-йилда жадал суръатлар билан ривожланиб, унинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши 54,5 фоизни ташкил этганлигини, хизматлар ва сервис соҳасининг жорий йилда кескин ўсиши, аввало қурилиш, транспорт, молия-банк ва ахборот-коммуникация соҳаларида, аҳолига тиббий ва коммунал-маиший хизматлар кўрсатишда, айниқса, қишлоқ жойларда бу соҳани янада кенгайтириш учун ҳали-бери фойдаланилмаётган катта имкониятлар мавжудлигини таъкидлаб ўтдилар¹.

Маълумки, туризм соҳасини ривожлантириш кўплаб иш ўринларини яратилишига, аҳолини иш билан таъминлаш ва аҳоли даромадлари ошишига олиб келади. Шу муносабат билан президентимиз ҳам ўз маърузаларида "Айни пайтда, шуни ҳам ўзимизга яққол тасаввур қилишимиз керакки, иқтисодий ўсишни таъминлаш, одамларимизнинг ҳаёт даражасини янада юксалтириш, ижтимоий-иқтисодий, ижтимоий-сиёсий соҳалардаги бошқа кўплаб вазифаларга ижобий ечим топиш энг муҳим бир вазифани муваффақиятли ҳал этишни талаб қилади. Бу вазифа авваламбор демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва иқтисодиётни эркинлаштириш, кучли фуқаролик жамияти барпо этиш йўлидан жадал ва самарали илгарилаб боришдан иборатдир"² деб таъкидлаганини алоҳида эътиборга олиш лозим. Бу билан биз ҳар бир соҳада ислохотлар чуқурлаштирилаётганлигини кўришимиз мумкин.

Республикада замонавий туризм саноатини ривожлантириш, кенг кўламда хорижий сайёҳларни жалб этиш, шу билан бирга халқаро аҳамиятга эга бўлган "Буюк ипак йўлини" қайта тиклаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1995 йил 2 июнда "Буюк ипак йўлини қайта тиклашда Ўзбекистон Республикасининг ролини

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг 2012-йилнинг асосий яқунлари ва 2013-йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси 18.01.2012 йил

²И.Каримов. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир. 27 январ 2010 йил Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузасидан. 28 январ 2010 йил "Халқ сўзи" газетаси.

фаоллаштириш ва республикада халқаро туризмни ривожлантириш тўғрисида”ги Фармони, “Буюк ипак йўли”да жойлашган қадимий шаҳарлардаги мавжуд маданий ёдгорликлар, тарихий, архелогик ва меъморий обидаларни қайта тиклаш ва улардан оқилона фойдаланиш бўйича “Мерос” миллий дастури қабул қилинди.

Мамлакатимизда халқаро туризм индустриясини ривожлантиришда туризм соҳасининг барча тармоқларини жаҳон стандартлари даражасида ривожлантириш учун барча имкониятларимиз етарли даражада.

I-БОБ Туризм саноатида туристик хизматлар тушунчаси

1.1.Туризм индустриясида turistik xizmatlar haqida tushuncha.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunidagi ayrim moddalarda turistik xizmatlar bilan bog'liq tushunchalarning ta'rifi berilgan. Jumladan, Qonunning 3 - moddasida turistik xizmatlar tushunchasi haqida: "turistik xizmatlar - turistik faoliyat sub'ektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot - reklama xizmatlari ko'rsatish borasidagi, shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlar", - deb ta'riflanadi³. Qonunning 11 - moddasi: "turistik sayohat va turistik xizmatlar majmui", - deb nomlanib, unda quyidagi fikrlar bayon qilinadi - "turistik sayohat yakka tartibda yoki turistlar guruhi tarkibida amalga oshiriladi. Turistik xizmatlar majmui transport (tashish - M.M.) xizmati ko'rsatishni, yashash, ovqatlantirish, ekskursiya xizmati ko'rsatish, madaniy, sport dasturlarini tashkil etish va boshqa xizmatlarni o'z ichiga oladi", - deyiladi. Qonunning 10 - moddasi: "Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish", - deb nomlanib, unda quyidagi jumalarni o'qiymiz: "Turistik xizmatlar majburiy sertifikatlashtirilishi lozim. Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish va sertifikat berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Turistik faoliyat sub'ektlarining turistik xizmatlarni majburiy sertifikatlashtirishdan bosh tortishi, turistik xizmatlarni sertifikatlashtirishning natijasi salbiy bo'lishi, shuningdek, sertifikatning amal qilishini bekor qilish turistik faoliyatni amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning amal qilishini to'xtatib qo'yishiga yoki litsenziyadan mahrum qilishga sabab bo'ladi". Qonunning 12 - moddasi: "Turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi", - deb nomlanib, quyidagi fikrlar bayon etiladi: "Turistik xizmatlar shartnoma asosida ko'rsatiladi. Shartnomada ko'rsatilgan xizmatlarning ko'lam va sifati, taraflarning huquqlari hamda majburiyatlarini, haq to'lash va hisob - kitoblar tartibini, shartnomaning amal qilish muddatini va uni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikni, shuningdek, taraflarning kelishuviga ko'ra boshqa shartlarni belgilaydi". Qonunning 13 - moddasi: "Turistik yo'llanma (vaucher)", - deb nomlanib, unda: "Turistik yo'llanma (vaucher) - turistning yoki turistlar guruhining tur tarkibiga kiruvchi turistik xizmatlarga bo'lgan huquqini belgilovchi va bunday xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat", - deyiladi.

Turist turistik mahsulotlar (turistik xizmatlar, ish va tovarlar) iste'molchisidir. Bu haqiqat - bu uch qoidadan birini yoddan chiqargan yoki etiborga olmagan turistik markaz turizmdan ko'zlangan foydani ololmaydi. Aksincha, shu qoidalarga amal qilgan turistik markaz qiyinchiliksiz rivojlanadi, yaxshi foyda ko'radi va o'z sarmoyasini turizmni rivojlantirishga sarflaydi. Bunga misol - Antaliya turizmi. Bu joy 80 - yillar oxirida ham qumli sohil edi, keyingi 10 yillikda Evropa miqyosida eng kuchli kurortlardan biriga aylandi. Bu kurortda bir mavsum davomida 1 mln. rossiyaliklar dam oladi, bu ko'rsatkich umumiy turistlarning 10 % ni tashkil etadi. U erda mashinasozlik zavodlari yo'q, hamma narsa turistga xizmat qilish uchun mo'ljallangan. Kurortni rivojlantirish uchun xorijdan katta sarmoyalar kiritilmoqda. Rossiyalik turistlar uchun viza bekor qilingan, bojxona ishlari engillashtirilgan. Faqat, tashrif buyuring, dam oling va sotib oling - shioriga amal qilinadi. Antaliya sohillarida aholini ish bilan taminlash

³“Туризм”тўғрисидаги қонун 3-модда 20.08.1999 й

yuqori darajada, hatto xorijdan ham ishchi kuchi talab etiladi. Bu tez rivojlanayotgan Turkiya uchun juda katta ko'rsatkichdir.

Turistik mahsulotlar - turistik xizmatlar (bronlashtirish, tashish, joylashtirish, ovqatlantirish, o'yinlar), turistik ishlar (foto xizmati, sug'urta, axborot, moliya, bank xizmati), turistik tovarlar (esdalik sovg'alar, xilma -xil tur tovarlari, iste'mol tovarlari - parfyumeriya, tamaki, spirtli ichimliklar, maishiy texnika, kiyim - kechak)dan iboratdir⁴.

Turistik xizmatlar - turist va ekskursant ehtiyojlarini qondirish va ta'minlashga qaratilgan, xizmat sohasidagi bir maqsadga yo'naltirilgan harakatlar to'plami bo'lib, ular turizm maqsadlariga, xarakteriga va turistik xizmatning qanday yo'naltirilganligiga javob berishi hamda umuminsoniy tamoyillarga qarshi bo'lmasligi kerak. Davlat standarti ta'rifiga ko'ra, turistik xizmatlar - turistlarning ehtiyojlarini qondirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi turizm tashkilotlarining faoliyati mahsulidir.

Umuman xizmatlar - bu ko'zga ko'rinmas tovarning o'ziga xos turidir. Xizmat bevosita iste'mol jarayonida yuzaga keladi va alohida holda bo'lmaydi. Bu xizmatning tovar bilan asosiy farqidir. Bundan tashqari, tovar iste'molchiga olib kelib beriladi, turistik xizmatda esa iste'molchi bevosita xizmatning paydo bo'ladigan eriga olib boriladi. Shuning uchun ham turistik xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish moddiy tovarlarni sotishga aloqador bo'lgan qonunlar asosida emas, balki boshqa qonunlar majmui bilan boshqariladi.

Turizm xizmatida eksport tushunchasi va qonun - qoidasi boshqacharoqdir. Ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha - an'anaviy variantga ko'ra, turistlar guruhi boshlig'ining xorijiy davlatlardagi xizmatlari va xorijiy davlatda ishlash uchun yuborilgan avtobus haydovchisining xizmatlari turistik xizmatlarning eksportiga ta'luqlidir. Misol uchun, Gruziyaning "Turizm to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra mamlakat ichidagi xizmatlar turizm importi, tashqarisidagi xizmatlar esa turizm eksportiga ta'luqlidir. Rossiya va O'zbekiston hududidagi mahalliy turistik korxonalar tomonidan xorijiy turistlarga ko'rsatilgan xizmatlar eksportga aloqadordir va buning uchun firmalar ba'zi imtiyozlardan foydalanadilar.

1.2.Туризм бозорида turistik xizmatlar tarkibi

Turistik xizmat tarkibiga - xizmatlarni buyurtma qilish, tashish, joylashtirish va boshqa barcha rasmiylashtirish ishlari, tashib berishning barcha turlari, transfer, ovqatlantirish, ekskursiya va attraksionlar, tibbiy ko'rik va sug'urta, tarjimon xizmatlari, uchrashuvlar va boshqalar bilan ta'minlash kiradi. Xizmatlar tarkibiga yana - guruh boshlig'i xizmati bilan gid - tarjimonning xizmati ham kiritilishi mumkin.

Har bir turning xizmatlar doirasi turlicha bo'lib, dastur bilan belgilanadi va har bir xizmatning o'z ichiga kiruvchi yana boshqa juda ko'p elementlari bo'ladi.

Agar turizmni ko'rib chiqadigan bo'lsak, umumiy tamoyillarga ko'ra, har bir turistik paketda eng kamida ikkita xizmat turi bo'ladi, bular: tashish va joylashtirish xizmatlar paketidir. Bularni asosiy turistik xizmatlar (ikkita)deyiladi. Mutaxassislarning fikriga qaraganda qo'shimcha turistik xizmatlar ham bo'lib, ularning soni 400 dan ortiq hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tilgan ikkita (asosiy) xizmat turidan tashqari qolgan barcha xizmatlar qo'shimcha turistik xizmatlardir. Hatto, ovqatlantirish va ekskursiya xizmatlari ham. Turistning xohishiga ko'ra tashkilotchi tomonidan xizmatlar kengaytirilishi mumkin, yoki bu narsa tashkilotchilar tomonidan turistning tanloviga ko'ra belgilanadi. Ikkinchisi ma'qulroq, chunki, umumiy narxlar raqobatning tamoyillar va qadriyatlarga ko'ra minimal darajaga tushmoqda. Bu esa avvalambor xizmatlar paketining ham minimallashtirishiga olib kelmoqda. Shu asnoda har qanday millatdagi turist bo'lsa ham narxlarga e'tibor berishini hisobga olish zarur.

Asosiy ruhiy omilni belgilaymiz: turist turni sotib olish va tanlash davrida har qanday yo'l bilan bo'lsa ham harajatni kamaytirishga intiladi. Lekin, bu bilan uni ochko'z deya olmaymiz, vaholanki, shundaylari ham tez - tez uchrab turadi. Pulni sarflash - dam olishda katta

⁴О.Х.Хамидов, А.А.Аблакулов "Туризм асослари" ўқув қўлланма Т-2011 й 199 б

huzur baxsh etadi. Turist dam olish vaqtida pulni o'ziga ishlatishni yaxshi ko'radi va shuning uchun ekskursiya shaklidagi yoki ko'ngilochar harakat shaklidagi qo'shimcha haridlar - erkin pul harjlashdir. Bunday holatda quyidagi ibora qo'llaniladi: turist sayohat davomida oddiy hayotga nisbatan ancha ko'proq pul ishlatadi. U bu pullarni yil buyi yiqqan bo'lishi mumkin, lekin hech bo'lmasa 1 - 2 haftacha tejamkorlikdan dam olish uchun pulni o'ylamay sarflaydi. Xalqaro statistikaga ko'ra turistlar borgan joylarda haftasiga 600 AQSh dollarigacha pul sarflaydi, olmonlar xasislar kategoriyasiga kirishadi, chunki ular hammadan ko'ra kam pul sarflashadilar, ruslar bo'lsa hatto shopping - turist (tijoratchi)larni hisobga olmaganda, boshqa mamlakat va millatlarning turistlariga nisbatan 2 - 3 barobar ko'proq pul sarflashadi.

Tashish (olib borish) xizmati

Tashish xizmati bir nechta bo'limdan iborat. Birinchi bo'limi - Transfer - turistni asosiy yig'ilish joyiga olib kelish (aeroport, vokzal...) va uni belgilangan joyga tashish (olib borish, masalan, kurort, otel...). Ikkinchi bo'limi juda uzoq masofaga, xorijiy elga, yoki boshqa tur markazga tashish (olib borish). Buning samarasi texnikaning rivojlanishiga bog'liq. XIX asrda temir yo'lining qurilishi turizm uchun juda qulay sayohat qilish imkoniyatini yaratdi. Uning qulayligi nisbatan narxlarining arzonligidadir. Hozirgi rivojlangan davlatlarda (Yaponiya, Frantsiya, Italiya, Germaniya...)tezyurar poezdlar (360 km. s) aviatsiya bilan raqobatlashmoqda. Birinchi yuz yillikda turizm temir yo'ldan foydalanishga asoslandi va kamroq daryo va dengiz transportidan foydalanildi. Biz bilamizki Tomas Kuk Amerika vaEvropa qit'alari bo'ylab turizmni tashkil qildi. Turizmning rivojlanishiga tashish (olib borish) xizmati asosiy to'siq bo'lib qoldi. XX asr o'rtalariga kelib havo yo'llari rivojlandi. Zamonaviy avialaynerlarga (12 ming. km) 300 gacha yo'lovchilar olinib boshlandi. Bir kecha kunduz davomida zamonaviy avialaynerda er sharining hohlagan eriga, hohlagan tur markazlariga borish imkoniyati yaratildi. Uzoq shimoliy rossiyaliklar uch - to'rt soatda issiq o'lkalarda, O'rta er dengizida bo'ladilar. Tovushdan tez uchar samolyotlar imkoniyati esa juda keng. Lekin, ularning xizmati narxi juda baland.

Xizmat sifatiga qarab tashish (olib borish) xizmati sinflarga ham bo'linadi. Yirik 14 ta sinf xizmatlariga: havo yo'llarida 5 ta sinf xizmati (birinchi biznes sinfi, ekologik, turistik va boshqalar); temir yo'llarida 4 ta sinf xizmati, avtobuslarda 5 sinf xizmatlari kiradi. Otellarni va restoranlarni klassifikatsiyaga bo'linishi hammaga ma'lum. Avialaynerdagi biznes sinfi turist yoki ekologik sinfdan farq qiladi. Xizmat sinfiga qarab narxlar ham farqlanadi, tur narxlari ham xuddi shunday.

Joylashtirish xizmati (aniqrog'i, mehmonxona industriyasi) haqida mazkur o'quv qo'llanmamizning 7 - mavzusida fikr bildirganimiz bois, bu erda alohida to'xtalib o'tishni joiz, deb bilmadik.

Ovqatlantirish xizmati

Zaruriyati yuzasidan joylashtirishdan keyin ovqatlantirish turadi. Tur davomida vaqtida ovqatlanmaslik tufayli turistlar kayfiyati joyida bo'lmaydi. Ertalabgi nonushta har doim joylashtirish hisobiga kiradi. Ikkinchi ovqatlanish mehmonxona zimmasiga yoki alohida turist xohishiga bog'liq bo'ladi. Ba'zilar: "turist uxlash va ovqatlanish uchun shunday uzoq joylarga boradimi? ", - deb savol berishadi. Dam olish va oziqlanish - ajratib bo'lmaydigan talab, uning sifati turistning ta'surotlarini va tur xizmatining narxini belgilaydi. Qadimgi Rimliklarning "Non va tomosha bo'lsa", - degan naqli hozirgacha o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Odamzot shunday yaratilgan, ertalab turib ovqatlanadi va keyin madaniy hordiq chiqaradi. Ovqatlantirish xizmati dam olish va rohatlanishdan yuqori turadi. Albatta, ovqatlanish bu rohatlanishdir. Mijoz talabiga ko'ra (milliy) taom bilan ta'minlanadi. Avstraliyaga borgan evropalik hech qachon qo'ng'iz va chuvalchanglar bilan oziqlanmaydi, lekin mahalliy xalq kengru go'shtidan bifshteks yoki timsox dumidan juda mazali taomni iste'mol qiladilar. Turistlar ham bu taomlarni qiziqish bilan tatib ko'radilar. Turizm tashkilotchilari ovqatlantirishni chuqur o'rganib chiqishlari va turistning ko'nglini to'ldirishlari zarur. Frantsuzlar qizil vinosiz tushlikni qoniqarsiz qabul qilishadi. Sharqliklar esa yog'li va achchiq ovqatni hush ko'rishadi. Amerikaliklar karamni bilishmaydi va undan tayyorlangan taomni emaydilar. Evropaliklar sup - pyurega ko'nikishgan,

ular ruslarning suyuq ovqatini istemol qila olishmaydi. Ular uchun bu "birinchi va ikkinchi taom bir idishda", - degani. Turistlarni ovqatlantirish uchun har - xil millatlar taomlari yozilgan maxsus tavsiyanomalar bor. Ovqatlantirish xilma - xil bo'lishi va turist uchun kutilmagan sovg'a bo'lishi kerak.

Ekskursiya xizmati

Turistik xizmatlar tarkibiga ekskursiyalar, poxodlar ham kiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunida: "ekskursiya faoliyati - turistik faoliyatning tarixiy yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar va boshqa ob'ektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo'nalishlar bo'yicha ekskursiya etakchisi (gid) hamroxligidagi 24 soatdan oshmaydigan ekskursiyalarni tashkil etishga doir qismi", - deyilgan. Gid haqida esa: "gid (ekskursiya etakchisi) - tur qatnashchilariga turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi doirasida ekskursiya - axborot, tashkiliy yusindagi xizmatlar va malakali yordam ko'rsatuvchi jismoniy shaxs", - deyiladi.

Ekskursiya (excursion) - turistga va ekskursant (bir kunlik ziyoratchi)ga taklif qilinishi mumkin. Ekskursiya turistik xizmat bo'lib, turistning estetik, ruhiy, boxabarlik va boshg'a qiziquvchanlik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Ekskursiya moboynida qatnashuvchilar olamni anglash, tabiat mo'jizalarini, tarixiy obidalarini ko'rish, shahar va parklarda bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ekskursiyashunoslik - bu alohida, jiddiy fan hisoblanadi. Birinchi Rossiya ekskursiya olib boruvchisi Pyotr I hisoblanadi. U xorijlik mehmonlarni Sankt - Peterburg bo'ylab olib yurib, qurilishlarni ko'rsatar va o'zining muvoffaqiyatlari bilan maqtanishni yoqtirar edi.

Ekskursiyaning o'ziga xos shartlari ham bor: tematika (mavzu), rejalashtirilgan yo'nalish (marshrut), ma'lum muddatga oldindan tayyorlangan matn va tabiiyki, ishtirokchilarning, ya'ni ekskursantlarning bo'lishi. Ekskursiyaning funktsional ahamiyati - dam olish, madaniy saviyaning oshishi va muloqot hisoblanadi.

Attraktsionlar, o'yinlar, ko'ngilochar mashg'ulotlar va o'yin biznesi ham turistik xizmatlar qatoridan joy oladi. Yanada aniqrog'i bularni qo'shimcha turistik xizmatlar, - deyiladi.

Ko'ngil ochishning uslublari va xillari chegarasiz darajada ko'p, negaki ular tashkilotchilarning fantaziyalariga bog'liq. Ko'ngil ochish mashg'ulotlarining 110 ga yaqin eng mashhur va ko'zga ko'ringan turlari mavjud. Texnika rivojlanishi va o'yingohlarning tashkilotchilari fantaziyasi bilan yangidan - yangi dam olish imkoniyatlari ko'paymoqda.

Har kimning ta'bi har - xil, ba'zi bir turistlar Parijdagi tarixiy eksponatlarini ko'rish uchun Luvr muzeyini hohlasa, ko'pchiligi Evro Disney - Uold Disneyning kashfiyotlarini tomosha qilishni yoqtiradi. Juda ko'p markazlar, xiyobonlar atraktsionlar bilan to'la. Bular - arg'imchoqlar, qiyshiq oynalarning kulgu xonalari, uchish joylari. Misol uchun, Disney bog'ining tematik davomi bo'lgan kosmik uchishlarni boshqarish pulti shaklida jihozlangan bolalarning elektron o'yinlari uchun butun bir zalni ajratilgan "Disney Magik", Amerikada esa otlarda yurish, har - xil fantastik, mexaniq va elektron ko'rinishdagi tomoshalardir. Hozirgi kunda yuqori darajaga erishgan "Disney Magik" kruiz laynerini keltirish mumkin. Atraktsionlar tizimida bolalarning avtomat o'yinlari katta o'rin tutadi, kattalar uchun esa yanada jiddiyroq o'yin sanoatining yangi kategoriyasiga oid ko'ngil ochish mashg'ulotlari ma'quldir. Ular billiard, karta, ruletka va boshqalardir.

O'yin biznesi ko'ngil ochish tizimida alohida o'rin tutadi. Las - Vegas dunyoda o'yinlar biznesining poytaxti hisoblanadi. Cho'l o'rtasidagi kichkina shaharcha er yuzini o'zining o'yingoxlari bilan lol qoldirgan. Aynan, Las - Vegasda dunyoning eng katta 13 ta mehmonxonasi qurilgan. O'yin zallari bir vaqtning o'zida 1000 ta stolni o'z bag'riga oladi, minglab turistlar bu erda o'z omadlarini sinab ko'rishga kelishadi.

Kontsertlar, tomoshalar va sport tadbirlari

Turizm markazlarida mavsum davomida taniqli artistlar ishtirokida kontsertlar, har - xil tomoshalar, teatr artistlari, taniqli qo'shiqchilar bilan uchrashuvlar uyushtiriladi, xalq o'yinlari, festivallari va karnavallariga katta e'tibor beriladi. Bular ham turistik xizmat qatoridan joy oladi. Masalan, sharqiy Finlandiyadagi Savonlin qadimiy qo'rg'onida har yili opera festivali ikki

oy davom etadi. Bu opera festivaliga minglab turistlar tashrif buyurishadi (bir mavsumda 50 - 60 ming kishi). Frantsiyaning Nitsta shahrida avgust oyida esa jaz musiqasi festivali uch kun moboynda uchta katta zalda bo'lib, unda 100 dan ortiq musiqiy guruhlar, 300 ta taniqli musiqachilar ishtirok etishadi. Braziliyadagi karnavallar ham bunga misol.

Ko'pchilik turistlarni sport musobaqalari va birinchiliklari, avtomobil poygalari, tennis, olimpiada, futbol musobaqalari va boshqa o'yinlar qiziqtiradi. Bunday holatlarda kontsert, teatr va sport tomoshalarining chiptalari turpaket xizmatlari tarkibiga kiradi. Bunday tadbirlarni ham qo'shimcha turistik xizmatlar tarkibiga kiritib o'rganamiz.

Ish turistik xizmat turi sifatida

Ish xizmati doirasiga hamma turdagi xizmatlar hamda turizm xizmatiga aloqasi bo'lmagan ishlar ham kiradi.

Bu ishlar: banklar, kredit kartochkalar bilan bog'liq bo'lgan ish, aloqa xizmati, avtomobil yonlash, yoqilg'i quyish xizmati, texnik yordam xizmati, sog'likni saqlashga doir xizmat, bolalarga tarbiyachi va boshqa xizmatlardir. Shuningdek, maishiy xizmat ko'rsatish faoliyatining barcha turlari ham turistik xizmatlardir. Masalan, fotoplyonkani yoritish, rasmni chiqarish, fotoapparat va vidiokamerani ta'mirlash, sartaroshxona xizmati, kiyimlar va buyumlarni ijaraga berish, oyoq kiyimlarni ta'mirlashlar ham shu xizmat tarkibiga kiradi. Turizmdan ajratib bo'lmaydigan soha bu turistlarni kuzatib borish (tinchligini ta'minlash). Qo'riqchilar mehmonxonada, muzeylarda va ko'chalarda ham turistlar bilan birga yuradilar. Misrda turistlar karvon bo'lib, besh - olti avtobusda cho'l bo'ylab yurganda qurollangan militsiya bilan kuzatib boriladi. Gretsiyada mahalliy militsiya tarkibiga - tur militsiyasi ham kiradi va har bir telefon kitobchalarida ularning raqamlari mavjud.

Turistik sayohat yakuni (uyga qaytish)

Yaxshi dam olish o'z yo'liga, lekin yaxshi kayfiyat bilan uyga qaytish ham muhim. HOMEWARD - muhim turistik xizmat bo'lib, turistni uyga qaytishini ta'minlaydi. Turizm boshqaruvchi yoki tur olib boruvchi turizm yo'nalishiga va qaytish muddatiga, turizm rejasiga, ushlanib qolish muammosiga, qaytib kelish muddatini o'zgarganiga, turistik guruhni kutib oluvchi transportni tashkil qilishga va boshqa tashkiliy ishlarga javob beradi. U turistning qarindoshlari yoki do'stlari kutib olishi uchun qaytib kelish muddatini, samolyotda, poezdda yoki avtobusda ekanligini etkazishi lozim. Agar imkoni bo'lsa, qaytayotgan turistni kutib olishni va boshqa shaharlik bo'lsa uni joy bilan ta'minlash uchun mehmonxonadan bron olishi lozim bo'ladi.

II-БОБ Туризм индустриясида туристик хизматлар ва маҳсулотларнинг аҳамияти ва ривожлантириш йўллари

2.1. Turistik mahsulotlar haqida tushuncha

Turistik mahsulot (turist uchun mahsulot) - turizm jarayonida turistning ehtiyojini qondirish uchun kamida ikkita turistik xizmatlar (ishlar, tovarlar)dan tashkil topgan xizmatlar majmuasidir. Turistik mahsulot (turpaket) barcha ko'rsatilgan xizmatlar va harajatlarni o'z ichiga olgan narx bo'yicha taklif etiladi, uning iste'mol xususiyatlari esa shartnoma shartlarida ko'rsatiladi. Agar turistik xizmatlar ko'rsatish jarayonini kuzatadigan bo'lsak, unda turizm tashkilotchilari aynan xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanmaydilar, balki ular turistlarning ehtiyojlariga qarab turistik xizmatlarni faqat jamlaydilar va ularning kombinatsiyalarini tuzadilar, band qiladilar, buning zvaziga o'z foizlarini oladilar. Shunday qilib, turizm tashkilotchilari turistlar va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida vositachilik vazifasini o'taydilar. Turizm tashkilotchilari nima bilan savdo qiladilar va turistik yo'llanma yoki vaucherni harid qilgan turist bevosita nimaga ega bo'ladi?, - degan savol tug'iladi. Agar ushbu jarayonni diqqat bilan o'rganilsa, unda turist ushbu yo'llanma yoki hujjatning boshqa turi evaziga kelajakda turistik xizmatdan (o'rnatilgan muddatda) foydalanish xuquqiga ega bo'ladi.

Bu holda turistik mahsulotning yangi ta'rif paydo bo'ladi: turistik mahsulot - turga bo'lgan huquqdir. Jarayonning tabiiyligi bo'yicha baxslashib bo'lmaydi, garchi bunday ta'rif boshqa jarayonlarni, xususan sertifikatsiyalashni boshi berk ko'chaga olib keladi. Qonun bo'yicha turistik mahsulot sertifikatsiyalanishi lozim. Huquqni sertifikatsiyalashga hali hech kim o'rganmagan, zero turistning turga bo'lgan huquqi - uning istak - xohishi ma'nosida - turga boradimi yoki bormaydimi, paketdan to'laligicha yoki bir qismidan foydalanadimi, rad etadimi, sotadimi va hokazo.

Albatta, ba'zi transportchilar bu fikrga hali etib kelishganicha yo'q. Balki shunisi to'g'ridir, chunki huquqning barcha qonun - qoidalari bo'yicha - chipta yo'lovchi va uni tashuvchi o'rtasidagi shartnomaning majudligini tasdiqlovchi hujjat bo'lib, undan (chipta va shartnomadan) yo'lga chiqish huquqi kelib chiqadi. Turistik mahsulotga turga bo'lgan mavjud huquqni berish uning mazmunini toraytiradi va uning tabiiy va huquqiy tabiatiga ziddir.

Shunday qilib, «turistik mahsulot turga bo'lgan huquq» o'zining ichki tabiati bo'yicha tor ma'no kasb etadi, chunki uni tashkil etuvchi murakkab paketdagi munosabatlarning faqat ozgina qismini ta'riflaydi. Biroq Rim huquqshunosligi manbalarida qoida mavjud - qonun yomon, lekin u qonun. Qonunni hurmatlash va unga rioya qilish kerak va shu sababli rasmiy jihatdan turistik mahsulot - turga bo'lgan huquqdir. O'zining jismoniy mohiyati bo'yicha xizmatlar, ishlar va tovarlar va sertifikatsiyalash, ya'ni sifat munosibligini baholash majmuasiga huquq emas, balki aniq xizmatlar, ishlar va tovarlar lozimdir.

2.1.-жадвал

Ўзбекистон Республикасида 2006-2010 йилларда хизмат кўрсатиш ва туризм соҳасидан тушадиган даромадларнинг кўрсаткичлари (млн. сўм ҳисобида)

Минтақалар	2005й	2006 й	2007 й	2008 й	2009 й	2010 й	Жами 2006- 2010 йй
Ўзбекистон Республикасида жами	39787,1	45755	54906	66985	82392	107110	357148
Шундан:							
Қорақолпоғистон Республикаси	10,7	12,3	14,8	20	30	40	117,1
Вилоятлар:							
Андижон	67,4	77,5	93	113	139	181	603,5
Бухоро	2546,7	2928,7	3514,4	4287	5230	6800	22760,1
Жиззах	86,3	99,2	119	142,8	175,6	228	764,6
Қашқадарё	172,3	198,1	237,7	290	360	468	1553,8
Навоий	34,1	39,2	47	56	68	88	298,2
Наманган	36,1	41,5	49,8	61	75	98	325,3
Самарқанд	5648,2	6495	7794	9352	11222	14500	49363
Сурхондарё	2507,2	2883	3000	3155	3407	4200	16645
Сирдарё	5,8	6,6	15	20	30	40	111,6
Тошкент	215,2	247,5	297	363	450	585	1942,5
Фарғона	950,6	1093	1100	1200	1280	1350	6023
Хоразм	1006,5	1157	1388	1700	2091	2720	9066
Тошкент ш.	26500	30476,4	37236,3	46285,2	57834,4	75812	247644,3

Манба: «Ўзбектуризм» МКнинг 2006-2010 йилларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини жадал ривожлантириш дастури.

Tur - bu aniq tavsiflar, geografik yo'nalish va ma'lum vaqt oralig'ida uni o'tish tartibi, xizmatlar ko'rsatish muddati tarkibi va sifati, turizm tashkilotchisi tomonidan maqsadga yo'naltirilgan va tartibga solingan kerakli va etarli turistik xizmatlar, ishlar, tovarlar, turistik

mahsulotlarning to'plami bo'lib, ular eng kamida turistik mahsulotning ikkita turli tarkibi (masalan, joylashtirish va tashish)ni o'z ichiga olgan bo'ladi.

2.2. Туристик xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish йўллари.

O'zbekistonda ham turistik xizmatlar standartlashtiriladi va sertifikatlashtiriladi. Bu ish O'zbekiston metrologiya va standartlashtirish markazi va "O'zbekturizm" MK tomonidan amalga oshiriladi. Bunda doimo bosh talab xavfsizlikdir. Mahsulot yoki xizmatni sertifikatlashtirish berilgan mahsulot yoki xizmat turiga bo'lgan talablar asosida amalga oshiriladi. Bular tartibga tushirilgan va keraklicha o'rnatilgan qoidalar majmuasi - standartlar, qoidalar, talablardir. Davlat, soha, idoraviy standartlar qat'iy hisoblanadi, shuningdek, qoidalar, talablar, tavsiyalar va boshqa me'yorlar uchrab turadi.

2..2-жадвал

Ўзбекистон Республикасида 2006-2010 йилларда хизмат кўрсатиш ва туризм соҳасидан тушадиган фойдаларнинг кўрсаткичлари (млн. сўм ҳисобида)

Минтақалар	2005й	2006 й	2007 й	2008 й	2009 й	2010 й	Жами 2006- 2010 йй
Ўзбекистон Республикасида жами	566,4	1712	2000	2440	2976	3869	12997
Шундан:							
Қорақолпоғистон Республикаси	1,1	1,1	1,3	1,7	2,5	3,3	9,9
Вилоятлар:							
Андижон	3,5	3,5	4	4,9	6	7,8	26,2
Бухоро	190,8	170	190	231,8	282,8	367,7	1242,3
Жиззах	3	3,6	4,2	5	6,1	7,9	26,8
Қашқадарё	18,1	18,1	21	25	31	40,3	135,4
Навоий	6,4	2,4	2,8	3	4	5	17,2
Наманган	0,9	2,3	3	4	5	6,5	20,8
Самарқанд	303,9	304	350	420	504	651	2229
Сурхондарё	71,6	82	90	95	102,5	126,3	495,8
Сирдарё	0,2	0,5	0,6	0,8	1	2	4,9
Тошкент	10,7	14,1	16,2	19,8	24,5	31,8	106,4
Фарғона	7,5	18	21	23	25	26,4	113,4
Хоразм	-51,3	39	45	55	68	88,5	295,5
Тошкент ш.	0	1053,4	1250,9	1551	1913,6	2504,5	8273,4

Манба: «Ўзбектуризм» МКнинг 2006-2010 йилларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини жадал ривожлантириш дастури.

Mahsulot yoki xizmatning standartlar, talablar yoki qoidalarga mos kelishini tekshirish majburiy yoki ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Majburiy sertifikatlashtirish qonunchilik orqali o'rnatiladi. O'zbekiston respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonunida turistik mahsulotni majburiy sertifikatlash yozib qo'yilgan.

Mazkur qonun bo'yicha turistik mahsulot - turga bo'lgan huquqdir. Binobarin, qonunga asosan huquqni sertifikatlashtirish zarur bo'ladi, bunga esa hali jahonda hech kim o'rganmagan. Shunday bo'lsa ham, agar xuquqni sertifikatlashtirib bo'lmaslikdan diqqatni boshqa tomonga bursak, barcha xizmatlar sifatini ham baholash etarli darajada oddiy emasligi ko'rinib qoladi.

O'z - o'zini boshqarish tizimi, masalan, uyushmalar, ittifoqlar va boshqa jamoatchilik tashkilotlari, mehmonxonalar birlashmalari o'zlarining xususiy xizmat ko'rsatish standartlarini o'rnatadilar, ular faqat mazkur birlashma qatnashchilariga tegishlidir. Xalqaro AKKOR

mehmonxonalar tizimi turli mamlakatlardagi 1100 dan ortiq mehmonxonalarni birlashtiradi, lekin bu tizimdagi mehmonxonalarning barchasi mehmonlarga xizmat ko'rsatishning yagona standartiga bo'ysunadilar, yagona firma uslubini qo'llaydilar. AKKOR tizimining maxsus organi ko'rsatilayotgan xizmatlarning yagona standartga muvofiqligini tekshirib turadi.

Respublikamizda turistik xizmatlar ko'rsatuvchi turoperator va turagentliklar, mehmonxona va transport tashkilotlari, ovqatlantirish va ekskursiyalarni tashkil etuvchi korxona - tashkilotlarni majburiy sertifikatlashtirish tizimi yaratilgan.

2.3. Туризмни ривожлантиришда туристик хизматлар ва маҳсулотларни такомиллаштириш йўллари

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2006-2010 йилгача бўлган даврда Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш Давлат дастури тўғриси”даги Фармони босқичма-босқич амалга ошириш ташкил қилинган.

Америка Қўшма Штатларининг “Platinum Partners Ltd” компанияси билан қўшма корхоналар тузиш ва қурилиш лойиҳаларини амалга ошириш, шунингдек, интернет тармоғи бўйича тўғридан –тўғри уланадиган, янги хорижий ҳамкорлар топиш имкониятини яратадиган “Ўзбектуризм” Миллий Компанияси Веб-портларини вужудга келтириш борасида музокаралар ўтказилмоқда. Шунингдек, инглиз, немис, француз ва япон тилларидаги ахборот услубий маълумотномалар нашр қилинмоқда.

Туристлар оқимини кўпайтириш, Ўзбекистон Республикасида туризмни ривожлантиришга кўмаклашадиган барқарор вазият борасида ишончли ахборотлар тарқатиш мақсадида “Ўзбектуризм” Миллий Компанияси делегацияси турли йирик туристик кўргазмаларда иштирок этиб келаяпти. Бундан ташқари, делегация Лондондаги WTM – 2001, Берлиндаги ITB – 2002 ва Токиодаги JATA – 2002 кўргазмаларида “Ўзбекистон туризми кунлари”ни ўтказдилар. Шунингдек, Миландаги ВIT – 2002 халқаро туризм кўргазмасида иштирок этиб, юртимиз обрўсини оширди. Жумладан, “Ўзбектуризм” Миллий Компанияси Австриянинг “Anabasis” давлат туристик компанияси ўртасида ҳар йили ўтказиладиган Берлиндаги туристик ярмаркада биргалашиб қатнашиши ҳақида шартнома тузди.


Туризмнинг ихтисослашган турлари билан қизиқувчи туристлар сони кундан кунга ошиб бормоқда. Улар учун саёҳат йўналишлари ишлаб чиқилган. Маълумотномалар тайёрланиб, нашр этилган. Археологик объектларга саёҳат йўналишларини тузиш ва Сорос жамғармаси лойиҳаси бўйича Геодезия Институтини билан ҳамкорликда бир қатор ишлар олиб борилмоқда.

Энг аввало шуни таъкидлаш лозимки, халқаро миқёсда муваффақиятли тарзда олиб борилаётган бундай тадбирлардан ташқари Ўзбекистоннинг ўзида туризм ривожланишини қўллаб-қувватловчи бир қатор чора-тадбирлар хусусида ҳам тўхталиб ўтиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Мутахассислар фикрича, Ўзбекистонда туризм ўсиши йилига 7 фоизни ташкил қилмоқда. 2010 йилда Ўзбекистонда 937 минг кишига хизмат кўрсатилган, бу эса 2009 йилдагига нисбатан 2,5 баробар кўпдир. 2011 йилда эса 1 млн кишига хизмат кўрсатилган, улардан 278,0 минг киши чет эллик туристлардир. Валюта тушуми 2011 йилда 27 миллион 285 минг АҚШ долларини ташкил қилган. Демак, валюта тушумларини кўпайтириш учун туризмнинг родини кучайтириш керак. Бунинг учун эса бир қатор маркетинг тадбирларини амалга ошириш, туристларга кўрсатиладиган қўшимча хизматлар турини кўпайтириш керак. Бу ўз навбатида янги иш жойларининг яратилиши демакдир. Асосий хизматлар ўз ичига жойлаштириш, овқатлантириш, транспорт хизматлари кабиларни қамраб олади. Қўшимча хизматлар ҳам фойда олишнинг самарали усулидир. Бунинг учун миллий санъат буюмлари ва сувенир совғаларини сотиш тармоқларини кенгайтириш мақсадга мувофиқ бўлади.

2.1-диаграмма

**2003-2011 йилларда Ўзбекистонга ташриф буюрган туристлар сони
динамикаси, минг киши**



Манба: “Ўзбектуризм” Миллий Компанияси маълумотлари асосида тузилган

Ўзбекистон Республикаси “Туризм тўғрисида”ги Қонуни, Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 4-декабрдаги 518-519 сонли қарорлари, “Ўзбектуризм” Миллий Компаниясининг 1999 йил 23-август 132-сонли “Тоғли зоналар бўйича туристлар ҳаракатланишини вақтинча тўхтатиб туриш ҳақида”ги, 1999 йил 9-декабрдаги “Махсус маршрутларда хавфсизликни таъминлаш бўйича қўшимча чоралар ҳақида”ги, 2000 йил 25-август 106-сонли “Фавқулодда ҳолатларнинг олдини олиш ҳақида”ги, 2001 йил 4-июнь 55-сонли “Хорижий туристик гуруҳларни қабул қилиш ва рўйхатдан ўтказиш ҳақида”ги буюруқларини бажариш мақсадида “Ўзбектуризм” Миллий Компанияси, ҳокимликлар ва Ички ишлар вазирлиги, Давлат чегарасини кўриқлаш кўмитаси бўлинмалари билан ҳамкорликда Андижон, Бухоро, Жиззах, Қашқадарё, Наманган, Самарқанд, Сурхондарё, Тошкент ва Фарғона вилоятларида текширувлар ўтказди. Салбий ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида вилоят ҳокимликлари билан ҳамкорликда 2001-йил кузги-қишқи мавсумда туристлар хавфсизлигини таъминлаш бўйича қўшимча чора – тадбирлар ишлаб чиқилди ва вилоят ҳокимликларининг фармойишлари қабул қилинди.

2011 йил мобайнида 124 га яқин корхонага туризм соҳасида фаолият кўрсатиш учун рухсат берувчи лицензиялар берилди. Натижада 423 та иш ўринлари барпо қилинди⁵.

Миллий туристик ташкилотларни молиявий қўллаб-қувватлаш борасида қуйидаги ишлар олиб борилмоқда:

Туризм соҳасида камайтирилган фоиз ставкалари билан имтиёзли кредитлар, туризм объектларини қуриш билан боғлиқ ташкилий ишларга ссудалар бериш ҳам кенг йўлга қўйилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони ва Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари асосида туризм соҳасида фаолият кўрсатаётган микрофирма, кичик ва ўрта корхоналарнинг моддий-техника базаларини молиявий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш учун

⁵“Ўзбектуризм” МК йил якунлари ҳисоботи 07.02.2012 йил

Миллий Компания томонидан фоизсиз, узоқ муддатли қарзлар бериш амалга оширилди, жумладан, 2011 йилда 30 миллион сўмдан ортиқ фоизсиз қарзлар берилди.

2011 йил январь-декабр ойларида истиқбол-режа хизмат ҳажми бўйича 112%, фойда бўйича 127,8% қилиб бажарилди. Яъни, истиқбол-режадан ташқари қўшимча равишда 2325,5 миллион сўмга хизмат кўрсатилди.

2011 йил 12 ой мобайнида рентабиллик 8,3% ни ташкил қилди. Бу ўтган йилгига нисбатан 8% га кўп.

2011 йил мобайнида 1 млн. фуқароларга, шу жумладан, 463,4 минг чет эллик ва МДХ давлатлари фуқароларига, 296,8 минг Ўзбекистон Республикаси фуқароларига хизмат кўрсатилди. Шунингдек, 46,4 минг киши узоқ ва яқин хорижга ҳамда 627 минг киши Ўзбекистон Республикаси бўйлаб сафарга жўнатилди.

2011 йил январь-декабрь ойларида чет эллик фуқароларга хизмат кўрсатиш экспорт хизматлари ҳажми 463,4 минг АҚШ долларини ташкил қилди. АҚШда содир этилган воқеалар 90% чет эл гуруҳлари билан тузилган шартномаларнинг бекор қилинишига сабаб бўлди.

2011 йил 12 ойга 50% мажбурий сотув истиқбол-режаси 6222,5 минг АҚШ доллари микдорида белгиланган бўлиб, 12 ойга 4764,87 минг АҚШ доллари микдорида бажарилди. Бу белгиланган режанинг 76,6%ини ташкил қилди. Хуллас, валюта тушумидан 50% мажбурий сотув истиқбол режасининг бажарилмаслигига Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 22-июндаги 263-сонли қарорига асосан микрофирмалар, кичик ва ўрта корхоналарнинг 50% мажбурий сотувдан озод қилиниши ҳамда АҚШда содир этилган фавқулудда воқеалар сабаб бўлди.

2011 йилда валюта тушумларидан мажбурий сотув истиқбол режаси 5042,57 минг АҚШ доллари микдорида белгиланган бўлиб, амалда 6302,51 минг АҚШ долларига бажарилди. Бу белгиланган истиқбол режанинг 125%ини ташкил қилади.

Ўзбекистон Республикасига кўпроқ чет эл туристларини жалб этиш мақсадида туристик ташвиқот ишлари бошлаб юборилган. Бунда ахборот материалларининг сони ва сифатини ошириш катта аҳамиятга эга. Ҳозирда “Туризм ревью” ва “Дунё бўйлаб” телевизион кўрсатувларини мунтазам равишда ташкил қилиш тўғрисида Ўзтелеерадиокомпания билан шартномалар тузилган. Халқаро туризм кўргазмаларида намоиш қилиш учун Ўзбекистонда туризмнинг ривожланиши тўғрисида видеороликлар тайёрланган. Ўзбекистон Республикаси Бош Вазирининг 2001 йил 16-мартдаги 261-сонли Фармойишига мувофиқ Ўзбекистоннинг туристик имкониятларига бағишланган соҳалар бўйича бизнес-қайдлар нашр этилиб, тарқатилмоқда.

Туристларни янада кўпроқ жалб этиш учун меҳмонхоналарда кўрсатиладиган хизматлар сифатини жаҳон стандартлари даражасига кўтариш керак. Бунинг учун эса туристик соҳа мутахассисларини тайёрлашни йўлга қўйишга катта аҳамият бериш керак.

Ушбу вазифанинг самарадорлигини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси манфаатдор идоралари билан биргаликда республика ҳукумати ҳузурида олий ўқув юртларини тамомлаган ёш мутахассислар ва олий ўқув юртларида тайёргарликдан ўтган ёшлар тўғрисида махсус маълумотлар банкини яратиш ва улар юзасидан мониторингни амалга ошириш ташкил этилган.

Туристик бизнесни танлаган замонавий ёшлар бу сердаромад соҳанинг эртанги кунини кўзлаб, Ўзбекистоннинг келажакда ривожланган мамлакатлар қаторидан ўз ўрнини эгаллашига ҳисса қўшадилар.

2003 йилнинг 4-5 май кунлари Европа тикланиш ва тараққиёт банки бизнес анжуманининг айнан пойтахтимиз – Тошкентда бўлиб ўтганлиги юртимизнинг дунё микёсида мавқеи ошиб бораётганлигидан далолатдир.

Европа тикланиш ва тараққиёт банки 1991 йилнинг март ойида Франция Президенти Франсуа Миттеран ташаббуси билан таъсис этилган. Унинг асосий мақсади Марказий ва Шарқий Европа, Россия ва Марказий Осиё давлатларининг бозор иқтисодиётига ўтишига кўмаклашиш, шу жумладан тузилмавий ва соҳавий

Ўзгаришларнинг юзага келиши, монополиядан чиқариш, хусусийлаштириш жараёнларини жадаллаштириш, тадбиркорликни ривожлантириш каби иқтисодий ислохотлар олиб боришида ёрдам кўрсатиш йўли билан ушбу давлатларнинг жаҳон иқтисодий ҳамжамиятига кириб бориши учун барча имконият ва шарт-шароит яратишдир.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Халқаро туризмнинг мамалакат иқтисодиётидаги муҳим тармоқ эканлигини ҳисобга олган ҳолда Ўзбекистонда ҳам бу соҳани ривожлантириш, уни ўрганиш туризм имкониятларидан самарали фойдаланиш ва миллий туризм моделини шакллантириш зарурий ишлардан биридир. Миллий туризм моделини шакллантиришда ички имкониятларни ўрганиш ва таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир деб ўйлаймиз.

Турмаҳсулотларимиз кам истеъмол қилинадиган бозорлардаги туроператорларга нисбатан ўрнатиладиган муносабатларга қуйидаги устивор йўналишларни белгилашимиз мумкин:

ўзлаштирилаётган бозордаги янги ҳамкор туроператорларни Ўзбекистонга янада юқори баҳо беришга ишонтириш;

туристларнинг қизиқишини ўрганган ҳолда, махсус йўналишлар, дастурлар тузиш, чартер рейсларини амалга ошириш;

ҳамкорликда ишлаётган туроператорлар томонидан кўрсатилаётган хизматлар етарли даражада бўлмаётганини билиб қолса, ушбу хизматларни оширишга ва уларни ахборот билан таъминлаш, пайдо бўлган муаммоларни биргаликда ечимини топишга эришиш лозим.

Ўзбекистонда туризм индустриясини ривожлантиришда қуйидаги омилларга алоҳида эътиборни қаратиш лозим деб биламиз:

халқаро туризмда кичик тадбиркорликни фаолиятидан кенг фойдаланиш;

Ўзбекистоннинг туристик имкониятлари билан чет эллик инвесторларни таништириш;

кўплаб саёҳатларга чиқадиган Европа мамалакатларда бўладиган туристик ярмаркаларда доимий иштирок этишни таъминлаш;

ички туристик бозорда ўзаро рақобатни янада кучайтириш;

замонавий туристик комплексларни бунёд этишда чет эл сармоясини жалб этишга эришиш:

жаҳон бозорида талаб катта бўлган халқаро туристик йўналишларни йўлга қўйишда ва ишлаб чиқишда қатнашиш:

миллий урф одатлар ва тарихий архитектура ёдгорликларини асл кўринишда сақлаб қолишига эришиш:

миллий туристик маҳсулотларни ягона маркага бирлаштириш:

туризм соҳаси учун малакали мутахассисларни тайёрлашни такомиллаштириш:

Халқаро туризм бозорида хизматлар ва маҳсулотларни ўтказиш каналининг чекланганлиги туризмнинг тижорат соҳасидаги бир қанча йўқотишларни келтириб чиқарувчи асосий омиллардан бири ҳисобланади. Авваламбор, шуни ҳисобга олган ҳолда, Ўзбекистонда туризм соҳасида қуйидаги тадбирларни амалга оширишга катта эътибор қаратиш лозим:

-маҳсулотни ўтказишнинг турли хил каналлари ва воситачи шакллари аниқлаш мумкинлигини инобатга олган ҳолда, ушбу сотув тизимини тўлиқ таснифлаб чиқиш, янги каналларни зудлик билан ўзгартириш ва керакли маблағ билан кечиктирмасдан таъминлаш.

-воситачиларнинг шаклларига кўра қилинадиган харажатларни таҳлил қилиш ва икки томонлама манфаатларидан келиб чиққан ҳолда ҳамкорликни янада ривожлантириш.

-воситачиларни таклиф қилинаётган хизматларга нисбатан аниқ ахборотга эга бўлишини ўз вақтида таъминлаб туриш.

-ташриф буюраётган туристлар орқали воситачиларнинг мавқеи ва аҳамияти тўғрисидаги фикрларни ўрганиш, турли анкета саволларини тузиш.

Туристлик хизматлар асосини ташкил қиладиган меҳмонхона хизматлари маркетинги мавжуд меҳмонхона хўжалигини ривожлантириш, меҳмонхона бозоридан фаол фойдаланиш учун мувофиқ бўлган янги ўринларни очиш мақсадида тадқиқотлар

олиб бориш технологиясини ва ажратилиши режалаштирилаётган инвестициялар ҳисоб-китобини ўз ичига олади.

–хусусий ва давлат сектори вакиллари иштирокида Ўзбекистонда туризм индустрияси ривожланишидаги муаммолар ва масалалари бўйича маслаҳатлашув кенгашини ташкил қилиш;

–Ўзбекистоннинг туризм бўйича маркетингига жалб қилинган барча манфаатдор томонларнинг мунтазам равишда йиғилишлар ўтказишлари ўта муҳимдир;

–Ўзбекистон меҳмонхоналар индустриясининг "Меҳмонхоналар учун инвестицияларни жалб қилишда асосий эътибор ўрта тоифадаги (уч юлдузли) катта бўлмаган (ўрта ҳисобда 200 та ўринга мўлжалланган) меҳмонхоналарни қуришга қаратилиши лозим. Бу мавжуд имкониятлардан тўлароқ фойдаланиш, ҳажми деярли катта бўлмаганлиги сабабли молиялаштириш осонроқ бўлишига, фойдаланиш ва бошқариш жараёнида харажатларни камайтириш, шунингдек, ўрта даражада тайёргарликдан ўтган мутахассислар учун ҳам бошқара олиш имконини беради.

Бундан ташқари Ўзбекистонда туризм индустриясини ривожлантиришда тадқиқотларидан фойдаланишни такомиллаштиришда келгусида бунданда аниқ тадбирлар амалга оширилади деган умиддамиз.

Юқорида баён қилинган фикрлардан хулоса қилиб, қуйидаги таклифларни келтирамиз:

- туристик хизмат кўрсатишда тарихий обидалардан кенг фойдаланиш;
- халқаро туристларга хизмат кўрсатишда туристик имкониятларни ҳисоблаш ва имконият даражасининг энг юқори нуктасидан фойдаланиш;
- кўплаб саёҳатларга чиқадиган Европа мамалакатларда бўладиган туристик ярмаркаларда сурункали иштирок этишни таъминлаш;
- ички туристик бозорда ўзаро рақобатни янада кучайтириш, туристик фирмаларга давлат томонидан берилаётган имкониятларни қайта кўриб чиқиш;
- халқаро туризмда айниқса ташкил этишда маданий мерос урф-одатлар ва анъаналардан унумли фойдаланиш;
- халқаро туризмда туристлар талабини ўрганиб чиқиш;
- замонавий туристик комплексларни бунёд этишда чет эл сармоясини жалб этишга эришиш;
- жаҳон бозорида талаб катта бўлган халқаро туристик йўналишларни йулга қуйишда ва ишлаб чиқишда қатнашиш (Буюк ипак йўли имкониятларидан кенг фойдаланиш)
- миллий урф одатлар ва тарихий архитектура ёдгорликларини асл кўринишда сақлаб қолишига эришиш ва халқаро туристларга унинг яратилиши тарихи ҳақида кенгроқ тушунча бериш;
- туризм соҳаси учун малакали мутахассисларни тайёрлашни такомиллаштириш: (гид, таржимонлар ва тарихни яхши биладиган мутахассисларни тайёрлаш)

Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда катта имкониятлар борлигини таъкидлаб ўтган эдик. Бу имкониятларни тўғри йўналтирган ҳолдагина мақсадга эришишиш мумкин бўлади. Халқаро туризмни ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этадиган омиллардан бири миллий туристик маҳсулотни халқаро бозорда рақобатли бўлиши ва сотувини яхшилашни таъминлашдир.

Миллий турмаҳсулотларга халқаро бозорда талаб ортиб бориши Республиканинг халқаро майдондаги мавқеини ортиши билан бир вақтда янги иш ўринларини очиш, бозор иқтисодиёти шароитида аҳолининг ижтимоий ҳимоялашни вужудга келтиришда ва мамлакат ривожига керак бўлган валюта тушуми ҳиссаси билан алоҳида аҳамият касб этади.

Ўзбекистонда халқаро туризм соҳасининг ривожланиши нафақат туристик ресурслар балки, илғор давлатлар технологиясини қўллаш ҳам белгилаб беришини таъкидлаш лозим.

Замонавий туризмнинг шаклланишида малакали кадрлар ҳар доим керак бўлади. Шунинг ҳисобига олган ҳолда, олий ўқув юртиларида туризм соҳасига мутахассислар етказиб беришни кўпайтириш лозим.

Давлат томонидан туризмни бошқаришни янада кучайтириш лозим, чунки ўтиш даврида иқтисодий ислохатлар тўғри йўналтирилиши керак бўлади.

Халқаро туризмни ташкил қилишда мунтазам равишда янги технологиялардан фойдаланиш ва турфирмаларни энг муҳим инфор­мацион ахборотлар билан таъминлаб туриш зарурдир, чунки ҳозир янгиликларни ўз вақтида ўзлаштиришни замон талаб қилмоқда.

Юқорида берилган ҳар бир таклиф ва хулосалардан кўзланаётган асосий мақсад Ўзбекистонни ҳам туризмни ривожланган давлатлар қаторида қўриш, халқаро майдонда Ўзбекистоннинг об­рўсини кўтариш, дипломатик муносабатларни ривожлантиришдан иборатдир. Мазкур битирув малакавий иш муаллифнинг Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграцияланиши, ўзига муносиб ўрин эгаллашига баҳоли қудрат ҳисса қўшиш мақсадида қилинган камтарона уриниши бўлиб, келгусида бу борадаги изланишлар кўпчилик тадқиқотчилар томонидан кенг қўламда олиб борилишига умид билдира­миз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги қонуни. Т; . 1999й.
2. Ўзбекистон Республикасининг янги қонунлари. -Т.: Адолат, 2000.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ”Буюк Ипак йўли”ни қайта тиклашда Ўзбекистон Республикасининг иштирокини авж олдириш ва республикада халқаро туризмни ривожлантириш борасидаги чора –тадбирлар тўғрисидаги” ПФ-1162 сонли фармони. //Халқ сўзи, 1995.3- июнь.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбектуризм” МКсининг ташкил топиши” тўғрисидаги ПФ-447 сонли фармони. 27 июля 1992 йил. //Халқ сўзи.1992. 27 июль.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг "Ўзбекистон Республикаси солиқ кодекси" ва унда туризм соҳасига оид имтиёзлар тўғрисидаги қарори. Халқ сўзи // 1997-йил 24-апрель
6. Каримов И. 2012-йилнинг асосий яқунлари ва 2013-йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси 18.01.2013 йил
7. Каримов И. Инсон, унинг ҳуқуқи ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий кадрият. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 13 йиллигига бағишланган тантанали маросимда 2005 йил 7 декабрда сўзлаган маърузаси.
8. Каримов И. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. – Т.:Ўзбекистон, 2005 -92 б.
9. Каримов И. “Биз танлаган йўл демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли”; “Ўзбекистон” 2003й -318б.
10. Норчаев А.Н,. «Халқаро туризм» Дарслик Т: «Тошкент» 2009. -152 б.
11. Эшназаров М Халқаро туризмда сиёсатни шакллантириш: “Дарслик” 2009. 147б.
12. Алимов Қ.А, Б.Б. ХоловТуризм инфратузилмаси Тошкент, 2011 -167б.
13. “Ўзбектуризм” МК маълумотлари 2011 йил
14. БТТ маълумотлари 2011 йил

Интернет сайтлари

- www.peugeotufa.ru – цены услуг
- www.interunion.ru – туристские ассоциации
- www.world-tourism.org – Всемирная туристская организация
- www.tag-group.com – Консультативная группа по вопросам туризма(TAG)
- www.e-tours.ru – деловые туры, выставки, конференции
- www.travel-library.com – Электронная библиотека путешествий

ИЛОВА
2012 йилда туристларга кўрсатилган туристик хизматлар
(минг сўмда)

№	Вилоятлар	Хиз. ҳажми	Фойда (млн. сўм)	Тур. Сон (минг киши)	Х.тур.	Экс-я (%)
1	Андижон	28000	26.000.0	37.0	75.0	8.9
2	Бухоро	60500	18.500.0	68.4	270.0	37.0
3	Жиззах	9800	1.053.0	33.0	90.0	1.7
4	Қорақолпоғистон	1100	40.0	1.8	11.0	--
5	Қашқадарё	25400	2.100.0	32.0	57.0	31.0
6	Навоий	1050	1.090.0	1.2	4.2	0.2
7	Наманган	12500	1.090.0	20.9	36.0	9.3
8	Сирдарё	1900	1.010.0	0.80	3.7	1.7
9	Самарқанд	136000	23.000.0	41.0	139.0	40.0
10	Сурхандарё	5600	550.0	1.8	8.4	23.0
11	Тошкент вил.	21000	2.750.0	18.5	115.2	21.9
12	Фарғона	26000	3.400.0	20.5	73.2	26.0
13	Хоразм	30500	35.000.0	21.5	63.6	34.0
14	Тошкент ш.	6500.0	11.000.0	91.2	110.0	36.0

Ўзбекистон Республикасида 2008-2011 йилларда туризм соҳасини
ривожлантириш кўрсаткичлари

Кўрсаткичлар	2008 й.	2009й.	2010 й.	2011 й.
Туристлар оқими (минг киши)	621,7	659	699	741
Шундан, хорижий туристлар	241,9	257	272	288
Хизмат ҳажми (млн сўм)	39787,1	45755	54906	66985
Хизматлар экспорти (минг АҚШ доллари)	29000	42000	44520	47191
Фойда (млн сўм)	566,1	1712	2000	2440

Ўзбекистон туризмнинг ривожланиш кўрсаткичлари

Йил-лар	Жами хизмат кўрсатилди, минг киши	Олдинги йилга нисбатан ўсиш, %	Қабул қилинган хорижий туристлар, минг киши	Олдинги йилга нисбатан ўсиш, %	Жами олинган даромад, млрд сўм	Олдинги йилга нисбатан ўсиш, %	Жами олинган даромад, млн АҚШ доллари	Олдинги йилга нисбатан ўсиш, %	Жами олинган фойда, млн сўм	Олдинги йилга нисбатан ўсиш, %
1997	461,02	-	92,3	-	0,113	-	5	-	2,1	-
1998	434,3	-5,79	60,9	-34,02	0,2213	95,84	7,36	47,2	110,6	52 марта
1999	458,4	5,55	92,0	51,06	0,8111	266,51	8,0	8,69	236,7	114,01
2000	589,0	28,49	173,8	88,91	1,77	118,22	14,49	81,12	399,08	68,6
2001	730,4	24,0	252,9	45,51	3,65	106,21	18,83	29,95	544,46	36,43
2002	733,5	0,42	272	7,55	4,69	28,49	20,98	11,42	382,31	-29,78
2003	751,8	2,49	274	0,73	4,14	-11,72	25,52	21,64	517,72	35,42
2004	770,2	2,44	278	1,46	6,88	66,18	27,29	6,93	443	-14,43
2005	712,8	-7,45	231,43	-16,75	10,11	47,03	22,21	-18,61	1111,8	150,97
2006	709,1	-0,52	198,15	-14,38	15,778	55,93	21,54	-3,01	-166,5	-114,9
2007	719,9	1,52	230,44	16,29	17,528	11,09	23,58	9,44	105,61	163,43
2008	720,2	0,04	261,6	13,52	17,92	2,27	28,02	18,82	-258,7	-344,9
2009	608,9	-15,45	241,9	-7,5	40,01	123,21	28,13	11,11	758,4	393,1
2010	656,7	7,85	272,6	12,69	45,85	14,58	42,74	51,94	1036,4	36,66
2011	723,9	10,23	343,6	26,04	56,83	23,95	51,33	20,1	1503	45,02
2012	791,4	9,32	370,2	7,74	74,4	30,92	62,81	22,36	2419,7	60,99

Жадвал муаллиф томонидан «Ўзбектуризм» миллий компанияси маълумотлари асосида ҳисобланган